



## GINKGO BILOBA O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI

*Akramjonova Diyora Azizbek qizi*

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi 103-guruh talabasi*

*Tojiboyev Murodali Umaraliyevich*

*Andijon Davlat Pedagogika Intituti Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ginkgo biloba osimligining morfologiysi, tarqalish ekologiyasi, kimyoviy tarkibi, tibbiyotda va xalqa tabobatida qollanilishi yoritib berilgan. Xozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sugorilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tunganmas manbadir. Xalq tabobatining bu soxadagi qimmati, tutgan orni bebahodir. Buning uchun misol tariqasida hozirgi zamон tibbiyotida qollaniladigan shifobaxsh osimliklarni kopchiligi oz vaqtida xalq tabobati dorivor vositalar xazinasidan olinganligini yoki xozirgi zamон ilmiy tibbiyotining ozi xalq tabobati asosida taraqqiy etganini eslash kifoyadir.

**Kalit sozlar:** ginkgo biloba, kimyoviy tarkibi, tibbiyotda qollanilishi, qishloq xojaligidagi ahamiyati.

Mazkur oila bitta yagona turni (ikki bolakli ginkgo Ginkgo biloba L.) oz ichiga olgan. Ginkgo biloba osimligi faqat Janubiy Xitoyda yovvoyi holda uchraydi. Bu daraxt birinchi marotaba XVIII asrda Evropa bilan Amerikadagi botanika boglariga olib kelingan.



MDH hududida ginkgo biloba Qrimda, Kavkazning Qora dengiz qirgoqlarida ostiriladi. Ginkgo respublikamizning Toshkent (Botanika bogi), Samarqand, Andijon kabi shaharlari parkida osadi. Bu yirik daraxtning boyi 30-40m ga etadi. Bargi bandli, barg plantinkasi elpigichni eslatadi. Ortasi biroz tilingan bu barglar har yili qish mavsumida tokiladi. Ginkgo biloba ikki uyli osimlik, otalik qubbachasi boshqa osimlikda sirgasimon shaklda boladi. Shamol yordamida changlanadi. Changi bevosita urugkurtakda osib, chang naychasi hosil qiladi. Uruglanish oldidan bu naychada ikkita yirik, xarakatchan spermatozoid hosil boladi. Bu spermatozoid naycha orqali tuxum hujayraga borib qoshiladi. Ginkgoning rivojlanish sikli sagovniklarning rivojlanish sikliga oxshaydi, ammo vegetativ organlari topgullarining tuzilishi jihatidan ulardan jiddiy farq qiladi.

Tibbiyotda qo`llanilishi va kimyoviy tarkibi. Oxirgi yillarda Ginkgo biloba daraxti bargidan ajratib olinayotgan birikmalar farmokoterapiya sohasida bir qancha nerv va qon tomirlari kasalliklarida, ateroskleroz, xotirani yaxshilash va diqqatni jamlashda keng foydalanilmoqda. XX asr oxiriga kelib meditsina sohasida Ginkgo barglari uning xom-ashyosi hisoblanadi. Barg Ozbekiston sharoitida oktyabr oyidan sargayib boradi. Lekin birinchi ota qattiq sovuq va izgirin davrida daraxtdagi barglar sargayadi. Qor tushishi bilan ular erga tokiladi. Ana shu barglar teriladi va quritgichlarda quritilib kraft qogozli qoplarda qoplanadi. Barg tokilgandan song daraxtlarning meva kosaklari shoxlarda qolib ketadi. Xomashyo sifatida uning meva kosaklaridan foydalaniladi. Bu meva kosaklar shoxlarda avtokotarmalar yordamida terib olinadi va meva etidan uruglari ajratiladi. Meva eti alohida va urugi alohida tayyorlov punktlariga topshiriladi. Ginkgo mashhur preparatga aylandi.

Osimlik mevalari katta yoshdagи daraxtlardan oktyabr-noyabr oyilarida terib olinadi. Uruglar meva etidan ajratiladi. Ajratilgan uruglarni suvda yaxshilab



yuviladi. Songra, quritiladi. Osimlik uruglari maxsus pollarda ekilib, kochat tayyorlanadi. Kochat tayyorlash uchun pollarning substratini unumdonligi yaxshilash, poldagi tuproq, chirigan gong, barg chirindisi va qum aralashmasi asosida tayyorlanishi zarur. 1 hektar maydonga kochat tayyorlash uchun 8-10 kg urug sarflanadi. Tayyorlangan maydon yuzasiga uruglar sepiladi. Uruglar sepilgan pollarga 3-4 sm qalinlikda maxsus tayyorlangan substrat (1-1-3=qum-gong-tuproq) solinadi. Har 2 kunda 1 marta leyka yordamida sugoriladi. Tuproqning namligi ortacha meyorda saqlab turiladi. Ekilgan uruglar bahorda ortacha 50-55% unib chiqadi. Urugdan ungan nihollar pollarda 2 yil davomida parvarishlanib, songra kichik maydonlarga 60 sm qator oraligida va tuplar orasi 20-25 sm qilib ekiladi. Yil davomida 8-10 marta sugoriladi. Har 2 marta sugorishdan song, qator oralari yumshatilib, begona otlardan tozalanadi. Ushbu kichik maydonlarda nihollar 3 yil davomida parvarishlanadi. Songra osimlik plantatsiyasini tashkil etish uchun katta maydonlarga 6x5, 6x6, 6x7, 6x8 metr oraligida kochat otqaziladi. Osimlikning xom-ashyosi sifatida bargi, meva eti va meva kosak urugi tayyorlanadi. Hosil, dastlab plantatsiya tashkil etilgandan song 3-4 yillarda teriladi.

Hosildorlik barg hisobiga dastlabki yillarda hol holda 3-4 sentner va quruq holda 1 sentnergacha, meva kosak hosildorligi 9-10 yillarda teriladi va dastlab meva eti 1 sentnergacha va meva kosak urugi 1-1.5 sentnerni tashkil etadi. Keyingi yillardan bu korsatkichlar doimiy ravishda 2 baravarga oshib boradi.

**Xulosa:** Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasallikkarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rintutadi. Juda ko'pchilik dorivor o'simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xom ashyo manbasi xisoblanadi. Biz dori-darmonlardan foydalanayotganimizda, ko'pincha ularni shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotganini xayolimizga ham keltirmaymiz. Masalan: kardiovalen — yurak kasalliklarini davo-lashda



qo'llaniladigan sifatli dorilardan bo'lib, u do'lana, asarun (valeriana), sariqgul (adonis) va boshqa bir qancha o'simlik turlaridan tayyorlanadigan murakkab birikmadir. Hozirgi vaqtida tibbiyotda ishlataladigan 900 dan ortiqroq xil dori-darmonlarning uchdan bir qismi dorivor o'simliklarning mahsuli hisoblanadi. Yurak kasalliklarini davo-lashda foydalaniladigan dorilarning 77%, jigar va oshqozon-ichak yo'llarida uchraydigan kasalliklarni davolaydigan dorilarning 74%, bachadon kasalliklariga qarshi ishlataladigan dorilarning 80% shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangandir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. H. Kh. Kholmatov, O. A. AHMEDOV, N. A. MUSAYEVA Fundamentals of pharmacognosy and botany, Tashkent 2017.
2. Kh.Kholmatov, A.I. Qasimov Russian-Latin-Uzbek dictionary of medicinal plants, Tashkent-1992.
3. K.Kh. Khaidarov, K.Kh. Khojimatov Plants of Uzbekistan, Tashkent-1992.
4. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yolchiyeva, D.Mustafakulov, technology and ecology of medicinal plant cultivation.
5. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.
6. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.
7. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY (LAMIACEAE). Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 183-190.



- 8.Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIASEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(13), 64-68.
- 9.Haydarov, M., Sayramov, B., Rahmonova, O., & Eshnorova, J. (2022). TARKIBIDA MONOSIKLIK MONOTERPENLAR BO ‘LGAN EFIR MOYLAR VA DORIVOR O‘SIMLIKLAR. Science and innovation, 1(A7), 337-343.
- 10.Teshaboyeva, M., Mamanazarov, B., & Sayramov, F. (2022). LAMIACEAE OILASINING ZIRAVORLIK XUSUSIYATIGA EGA TURLARI. Science and innovation, 1(D8), 509-514.
- 11.Yusupova, Z. A., Sayramov, F., & Azizov, R. (2023). RAYHON OSIMLIGINING MORFOLOGIYATI, KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QOLLANILISHI. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 3(1), 14-19.
- 12.Baratjon o’g’li, S. F. (2022). SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 85-89.
- 13.Baratjon o’g’li, S. F. (2022). LAMIACEA OILA VAKILLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(13), 41-43.
- 14.Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). CHEMICAL COMPOSITION OF MEDICINAL PLANTS AND USE IN MEDICINE. PEDAGOG, 1(5), 30-36.
- 15.Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE LAMIACEAE FAMILY. SO ‘NGI ILMUY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(6), 104-108.